

**YANGI O`ZBEKISTONNING XALQARO ALOQALARI VA JAHON
HAMJAMIYTIDA TUTGAN O`RNI (O`ZBEKISTONING MARKAZIY OSIYO
HAMDA UZOQ SHARQ MAMLAKATLARI BILAN ALOQASI)**

Nurmuxamatov Zilola Tohir qizi

Nizomiy nomidagi TDPUning tarix fakulteti 2-bosqich talabasi (99)723-16-34

O`zbekiston mustaqillikka erishganidan to shu kungacha juda uzoq va mashaqqatli yo`lni bosib o`tdi. Hurmatli birinchi prezidentimiz Islom Abduganiyevich Karimov davrida davlatimiz asoslariga tamal toshi qo`yilgan bo`lsa, amaldagi prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev davriga kelib, ana o`sha asoslar ustiga yangi davlat qurish ishlari boshlab yuborildi. Muhtaram davlat rahbarimiz barcha O`zbekiston fuqarolari zimmasiga Yangi O`zbekiston qurishdek masuliyatli bir vazifani yukladi.

Tarixdan ma'lumki xalqaro munosabatlар insoniyat rivojining muhum omili bo`lib kelgan. Har bir mamlakat taraqqiyoti undagi hamjihatlik, millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik va yaxshi qo`shnichilik munosabatlariga bevosita bog`liqdir. Shu sababli O`zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtidan boshlab millati, dini va etiqodidan qatiy nazar barcha fuqarolarni teng huquqli etib belgiladi. O`sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash daylat siyosati darajasiga qo`yildi⁴².

Muhtaram prizidentimizning say-harakatlari tufayli, mamlakatimizda uzoq muddatli taraqqiyotni ustuvorlashtirish yuzasidan, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan o`zaro yaxshi qo`shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga katta etibor qaratildi. Amalga oshirish muamo bo`lgan ko`plab masalalar qisqa vaqt oralig`ida o`z yechimini topdi. Bundan tashqari birqator mamlakatlar uchun vizasiz tartib joriy qilindi. Aviyaparvozlar va quruqlik orqali harakatlanuvchi transportlari yo`lga qo`yildi. O`zbekiston va mintaqaga mamlakatlari o`rtasidagi Tovar ariboshlash ko`rsatkichi 10 barobarga oshirildi. “Dunyoga ochiqlik” siyosatiga sodiq qolgan holda Yangi O`zbekistonning yangi hamkorlari va hayrihohlari ortib bormoqda. Yurtboshimizning xorij mamlakatlariga tashrifi chog`ida, faol diplomatik munosabatlар yo`lga qo`yilmoqda. Bir so`z bilan aytganda Yangi O`zbekiston jahon hamjamiatidagi samarali konstruktiv hamkorlik qadamlari dunyo ekspertlari tomonidan ijobiy baholanmoqda. Prizidentimizning Turkmanistonga tashrifi chog`ida yaqin do`stlik va ahil qo`shnichilikka asoslangan strategik hamkorlikni yanada mustahkamlash yuzasidan har ikki davlat o`rtasida kelishuv hujjati imzolandi.

Evropa kengashi prezidenti Sharl Mishel O`zbekiston tashqi dunyo bilan aloqalarini quidagicha baholadi. “Biz O`zbekistonning Markaziy Osiyodagi barqarorlik hamda hamkorlikni mustahkamlashdagi ro`lini yuqori baholaydi. O`zaro bog`liqlikni muhum deb hisoblaymiz va kelgusida muntazam ravishda uchrashib “yashil iqtisodiyot va barqarorlik masalalarini” birgalikda muhokama qilishni rejalashtirganmiz”. Yuqorida keltirilgan kabi misollarni juda ko`p keltirishimiz mumkin. Jahon hamjamiatini O`zbekistonga bo`lgan

⁴² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008

qiziqlishi va u haqdagi ijobiy fikirlari mamlakatimizni tashqi aloqalar borasida tobora yuksalib borayotganini yaqqol isbot bo`la oladi.⁴³

Bundan tashqari ta`lim sohasi doirasida ham jahoning rivojlangan mamlakatlari bilan keng doiradagi hamkorlik harakatlarini yo`lga qo`ymoqda. Bugungi kunda Farg`ona davlat universitetida AQSH, Germaniya, Ispaniya, Chehiya, Shvetsiya, Partugaliya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Qozog`iston, Tojikiston, Turkiya va Vengriya kabi mamlakatlardan yetakchi oliy ta`lim masalalari bilan hamkotlikda 80 dan ortiq shartnomalar imzolanib, 200 dan ortiq xorijiy mutahasislar jalb etildi. Amaldagi o`rta maktab ta`lim dasturi ham Evropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo`lgan, Finlandiya ta`lim tizimidan olingan. Ilim-fanga chanqoq, iqtidorli yoshlar uchun xorijda bakalavr va magistr darajalarini egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.⁴⁴

“Bugun O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli izchil o`zgarib borayotganini ko`rib turibmiz. Mamlakatimiz qo`shnilar o`rtasidagi ko`prikni tikladi, Markaziy Osiyodagi yetakchi mavqeyini mustahkamladi, mintaqaning barcha davlatlarini siyosiy va savdo-iqtisodiy yaqinlashtirish tashabusini ilgari surmoqda”, - deya takidlaydi, BMT ilmiy tadqiqot instituti va Yevropa universitetining xalqaro munosabatlarni rivojlantirish dasturi direktori Xorxe Mestre⁴⁵.

2020-yildan boshlab BMTTD boshchiligidagi Markaziy Osiyo iqlim xavfsizligi bo`yicha mintaqaviy siyosat loyhasini amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi. Ushbu loyha ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 2020-2021 yillarda, ikkinchi bosqichi esa 2021-2022 yillarda o`tqazilgan. Shu asosida tuzilgan hujjat yakuniy mavzuviy hisobot bo`lib, unda loyhada erishilgan natijalar, loyha amalga oshirishdan oldingi saboqlar, iqlim o`zgarishiga qarshi kurash hamda aholini ogohligini oshirish va O`rta Osiyodagi iqlim o`zgarishiga qarshi kurash borasidagi fikr-mulohazalar kiritilgan. Loyhani amalga oshirish va iqlim o`zgarishlarini nazorat qilish uchun xalqaro tashkilotlar, iqlim bo`yicha ekspertlar hamda tadqiqotchi olimlar jalb etildi. Loyha doirasidagi amalga oshirilgan faoliyat va tadbirlar keng jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilgan bo`lib, bu yolda izlanishlar, tushuntirish ishlari olib borildi. Loyha turli tadbirlar, konferensiylar, fikr-mulohazalar olish sessiyalari, davra suhbatlari, tadqiqotlar, so`rovlar, o`quv safarlari va hisobotlar orqali belgilangan natijaga erisha oldi. Hisobotda erishilgan asosiy natijalar va ularning Markaziy Osiyo iqlimi xavfsizligi bo`yicha siyosiy harakatlarni faollashtirish bo`yicha loyaning asosiy maqsadiga erishishga qo`shgan hissasi tavsiflandi.

Loyha Markaziy Osiyoning uchta davlati: Qirg`iziston, Tojikiston va O`zbekistonni o`z ichiga oldi. Loyha guruuhlar va manfaatdor tomonlarning hamkorlik loyhasini barcha bosqichlarini qamrab olib, undagi yaxlit ammo yo`naltirilgan yondashuvni taminladi⁴⁶.

Ma'lumki, O`zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o`z hududi atrofidagi tinchlik barqarorlik va xavfsizlik muhtini shakillantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Prezident Shavkat Mirziyoyev qo`shnilarimizni – Markaziy Osiyo

⁴³ <https://kun.uz/uz/33438689>

⁴⁴ https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-talim-tizimida-jahon-tajribasining-orni_382619

⁴⁵ <https://kun.uz/uz/news/2022/11/12/yangi-ozbekiston-xalqaro-diplomiya-markaziga-aylanmoqda>

⁴⁶ Asosiy natijalar va olingan saboqlae bo`yicha yskuniy msviziviy hisobot (2020-2022) T: 2022

davlatlari bilan do`stona, yaqin qo`shnichilik va o`zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo`nalish sifatida belgilab berdi⁴⁷

Shunisi ahamiyatliki, davlatimiz rahbari ilk xorijiy davlat tashrifi 2017-yilning mart oyida Markaziy Osiyo davlatlaridan boshlandi: avval Turkmaniston va Qozog`iston, so`ng Qиргизтон va Tojikistonga davlat tashrifi amalga oshirildi. Bu kabi tashriflar chog`ida biznes forumlar o`tkazilib, savdo-sotiq va invistsaviy hamkorlik bo`yicha hukumatlar aro bitmlar paketlari imzolandi. Bu esa O`zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasida o`zaro savdo-sotiq, koorparatsion aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O`zbekistonga javob tashrifi esa ko`p tomonlama hamkorlik poydevorlarini yanada mustahkamladi hamda iqtisodiy va invistsitsiya yo`nalishlarini kengaytirdi. Xususan, keyingi yillarda Qиргизтон va Tojikiston bilan o`zaro tovar aylanmani ikki baravar oshirish maqsadlari qo`yilib, O`zbekistonda suv ta`minotini sezilarli darajada yaxshilaydigan gidroenergetika loyhalarini birgalikda amalga oshirish bo`yicha kelishuvlarga erishildi. Mahsulotlarimizni Markaziy Osiyo bozorlarida targ`ib qilish uchun qo`shni davlatlarda savdo uylari ochila boshladи⁴⁸.

Prezidentimiz o`z lavozimiga saylangandan so`ng jahon hamjamiyati o`z etiborini mamlakatimizga qaratdi. Shubhasiz, ko`plab xorijiy ekspertlari prezident o`zining birinchi davlat tashrifini dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridan biriga amalga oshiradi deya taxmin qilishgan edi. Buning boisi, birinchi xalqaro tashrif qaysidir ma`noda davlatning xalqaro munosabatlar maydonidagi ro`lini belgilab beradi. Ammo prezidentimizning saylovdan keyingi birinchi tashrifi 2017-yilda qo`shni-qardosh mamlakat bo`lmish Turkmaniston Respublikasiga amalga oshirildi, ushbu tashrif barcha va shu jumladan O`zbekiston uchun ham kutilmaganda sodir bo`ldi. Bundan hulosa qilish mumkinki, O`zbekistonni xalqaro munosabatlardagi eng ustuvor yo`nalishi bu – Markaziy Osiyodir. Buni davlatimiz rahbari o`zining saylov oldi chiqishlarida va hatto, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 72-sessiyasida alohida ta`kidlab o`tilgan. Hech kimga sir emaski, bungacha mintaqamizdagи siyosiy vaziyat nihoyat noziklashib qolgandi. Suv masalasi, chegara masalasi, hullas yig`ilib qolgan muamolar juda ko`p va anchayin murakkab edi. Albatta, bu kabi muammolarni hal qilish uchun juda katta siyosiy iroda va kuch talab etiladi. Bu masalalar tizginini mamlakatimiz rahbari o`z qo`liga oldi. Prezidentimiz Markaziy Osiyoni birlashtirishga qaratiligan qo`shni va qardosh respublikalar bilan maslahat uchrashuvini tashkil etishni ilgari surdi va bu bir ovozdan ma`qullanib birinchi uchrashuv Ostona shahrida bo`lib o`tdi. O`tgan davr bilan solishtiradigan bo`lsak mintaqamizdagи vaziyat anchayin ijobjiy tomonga o`zgarganini ko`rishimiz mumkin. Bugungi kunda butun dunyo Markaziy Osiyo deganda birinchi navbatda Afg`onistonni ko`z o`ngiga keltiradi. Afg`on xalqining zaminida ham tinchli va osoyishtalik hokum surishi, shubhasiz mintaqqa iqboli uchun muhum ahamiyatga ega. Chunki Afg`oniston Markaziy va Janubiy Osiyoni bog`lab turuvchi o`ziga xos ko`prikdir. Afg`onistonida tinchlik hokum surishi, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining iqtisodi rivojiga ulkan hissa qo`shadi. O`zbekiston Afg`oniston

⁴⁷ <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-dostonha-hamkorlik-ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatining-ustuvot-yonalishi>

⁴⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/13/central-asia/>

orqali o`z mahsulotlarini Janubiy Osiyoga va u orqali Hind okeaniga chiqish imkoniyatiga ega bo`ladi⁴⁹.

Davlatimiz nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki, jadallik bilan rivojlanib borayotgan Uzoq Sharq mamlakatlari bilan ham yaqindan aloqalar o`rnatilmoqda. O`zbekiston Uzoq Sharqning eng taraqqiy etib borayotgan mamlakatlaridan biri bo`lgan Xitoy bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga etiborini qaratmoqda. Bu haqda O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Tszinpinga mamlakatlar o`rtasida diplomatic munosabatlari o`rnatilganligini 25 yillik munosabati bilan yo`llagan maktubida ma'lum qiladi. Asli O`zbekiston va Xitoy o`tasidagi aloqalari ko`p asrlik tarixga ega bo`lib, Buyuk ipak yo`li davriga borib taqaladi. “O`zbekiston BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar doirasida Xitoy bilan bundan keyin ham amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor”, - deb ta`kidlab o`tadi davlatimiz rahbari⁵⁰.

Uzoq Sharq mamlakatlaridan tobora rivojlanib borayotgan yana bir mamlakat, yani Yaponiyani ham O`zbekiston bilan aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganini ko`rishimiz mumkin. O`zbekiston Yaponiya uchun Markaziy Osiyodagi eng yaqin mamlakat hisoblanadi. Diplomatik munosabatlari o`rnatilganidan qarib o`ttiz yil mobaynida davom etib kelayotgan turli sohadagi aloqalar, madaniy yaqinlik, Yaponiya tarafidan ajratilgan rasmiy yordam, davlat rahbarlarining o`zaro tashriflari, shuningdek, xalq diplomatiyasi mazkur taraqqiy etayotgan munosabatlarda muhum ahamiyatga ega bo`lib bormoqda. Bir so`z bilan aytganda Yaponiya bilan munosabatlari O`zbekiston uchun har tomonlama manfatli hisoblanadi. Ayniqsa ta`lim sohasida Yaponiya beqiyos yutuqlarga erishgan⁵¹

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni hulosa qilishimiz mumkin-ki, O`zbekiston dunyo hamjamiyatiga chiqish yo`lida asosan ochiqlik va shaoflik siyosatida sodiq holda, barcha mamlakatlari bilan o`zaro do`stlik aloqalari o`rnatilib kelinmoqda. Bu boradagi tashabuslarni hurmatli davlat rahbarimiz ilgari surish bilan bir qatorda, ijrosini ham taminlashga katta etibor qaratmoqda. 2023-yildan boshlab O`zbekiston rasman dunyo uchun mutlaqo ochiq davlat deb e`lon qilindi. Mazkur qaror mamlakatimizni dunyo hamjamiyatida bir pog`ona yuqorilashining sababchisiga aylandi. Dunyo uchun ochiqlik siyosati mamlakat uchun naqadar foydali ekanligini Janubiy Korea misolida ko`rishimiz mumki. Nafaqat O`zbekiston va balki hech bir davlat dunyodan ajralgan holda taraqqiy eta olmaydi. Bundan tashqari O`zbekiston faqat Yevropagagina emas balki, Uzoq Sharq mamlakatlariga ham etibor qaratmog`i lozimdir. Chunki Uzoq Sharq mamlakatlati, hususan Xitoy, Yaponiy va Korea kabi mamlaktlar ham bugungi kunda eng tez taraqqiy eti borayotgan mamlakatlari qatoriga kiradi. Yurtimiz ham mana shu mamlakatlardan andoza olgan holda, qisqa vaqt ichida misliko`rilmagan taraqqiyotga erishishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymog`i lozim. Bundan tashqari Eron bilan aloqalarni yaxshilash, kelajakda O`zbekistonga dengizga chiqish imkoniyatini beradi.

⁴⁹ <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yangi-qoshnichilik>

⁵⁰ <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2017/01/04/mirziyoyev-o-zbekiston-xitoy-bilan-hamkorlikdan-manfaatdor-643491>

⁵¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-va-yaponiya-o-rtasidagi-diplomatik-munosabatlari-shakllanisi-va-rivojlanish-xususiyatlari>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008
2. <https://kun.uz/uz/33438689>
3. https://aza.uz/oz/posts/ozbekiston-talim-tizimida-jahon-tajribasining-orni_382619
4. <https://kun.uz/uz/news/2022/11/12/yangi-ozbekiston-xalqaro-diplomatiya-markaziga-aylanmoqda>
5. Asosiy natijalar va olingan saboqlae bo'yicha yskuniy msvziviy hisobot (2020-2022)
T.: 2022
6. <https://yuz.uz/uz/news/markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-doston-a-hamkorlik-ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatining-ustuvot-yonalishi>
7. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-yangi-qoshnichilik>
8. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2017/01/04/mirziyoyev-o-zbekiston-xitoy-bilan-hamkorlikdan-manfaatdor-643491>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-va-yaponiya-o-rtasidagi-diplomatik-munosabatlar-shakllanisi-va-rivojlanish-xususiyatlari>